

Safibullo Abdullayev,

*p.f.n., dotsent,
NamDU doktorant-tadqiqotchisi*




Ta'lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini loyihalashtirish


«Boshqaruv» so'zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi obyekt (yoki tizim)ga faol ta'sir ko'rsatish to'g'risida fikr yuritilganda qo'llaniladi, bu o'z navbatida, ma'lum bir rejalashtirilgan faoliyatni ifodalaydi.

Har qanday faoliyat boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyekt tizimlaridan iborat bo'lib, mazkur tizimlar o'rtasidagi aloqa insonlarning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi va mavjud o'zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan, ixtiyoriy faoliyat boshqaruvni talab etadi, shaxsning individual faoliyatida inson o'zini-o'zi boshqaradi va ko'zlangan natijalarga erishadi. Hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri zarur bo'lib, bu o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvni, ya'ni ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Boshqaruv insonlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni qondirishda, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Shunday ekan, boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon — bu inson yoki



1-rasm



2-rasm. Ta'lim muassasasida boshqaruv faoliyati modeli



muassasa oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra bajaruvchilar (mutaxassislar)ni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari (xodimlar) faoliyatini muvofiqlashtirish zarur bo'lib hisoblanadi.

Mazkur faoliyat boshqaruv faoliyatini, uni amalga oshirish boshqaruv funksiyalarini, amalga oshirish izchilligi (ketma-ketligi) boshqaruv algoritmini, amalga oshirish yo'l-yo'riqlari boshqaruv metodlarini, xodimlarning faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish boshqaruv uslublarini, mazkur yo'nalishda qabul qilingan qarorlar boshqaruv qarorlarini ifodalaydi. Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita subyektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'liq faoliyati sifatida qarash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv obyekti boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z o'rnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv subyektiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur jarayonda ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyatining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini tashkil etishda ijobiy natijalarga erishish uchun jamoada zaruriy sharoitlarni yaratish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash hamda yaxlit ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanib, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'nalishidagi hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etilishini ifodalaydi. Bu o'z navbatida, belgilangan maqsadlarga erishish ta'lim muassasalarida pedagogik xodimlari va boshqa texnik xodimlarning birgalikdagi samarali faoliyatini nazarda tutadi. Bu jarayon ta'lim muassasalarida faoliyatni muvofiqlashtirishni, ya'ni boshqaruvni ma'lum bir izchillikda loyihalashtirish zaruriyatini belgilaydi.

Ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda innovatsion faoliyatni tashkil etishda ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, bu o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur jarayon ijodiy jarayon bo'lib hisoblanadi. Mazkur jarayon o'z navbatida, ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari yo'nalishida ko'zlangan natijalarga erishish uchun eng qulay bo'lgan boshqaruv metodlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish asosida boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish, xodimlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarda hamda muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda oqilona qarorlar qabul qilish, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilishda boshqaruv faoliyatini ma'lum bir izchillikda loyihalashtirishni nazarda tutadi.

Boshqaruvni loyihalashtirishda, eng avvalo, boshqaruvning maqsadi, funksiyalarining mazmun-mohiyati va vazifalari inobatga olinadi. Umumiy maqsadlarga erishishda mazkur funksiyalarni

amalga oshirish tizimini tashkil etuvchi vazifalarning bajarilish ketma-ketligi belgilanadi, bu boshqaruv algoritmini ifodalaydi. Boshqaruv algoritmi — ta'lim muassasasi boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin (1-rasm).

Biz taklif qilayotgan mazkur boshqaruv algoritmi pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va obyektiv baholash, boshqaruv faoliyati maqsadini belgilash, boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish, kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish, jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis, jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish, maktab faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat bo'lib, mazkur bosqichlar izchilligida, boshqaruv metodlari: ijtimoiy-psixologik, ma'muriy, iqtisodiy, shuningdek, axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida boshqaruv funksiyalarining bajarilishi amalga oshiriladi.

Boshqaruv algoritmining mazmun-mohiyati boshqaruv funksiyalari va metodlarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi va ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta'sir ko'rsatishning tartibi, ketma-ketligi, yo'llari va ularning tugallanish davrini aks ettiradi. Ta'lim muassasalarini boshqarishda pedagogik xodimlar hamda o'quvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi, shuningdek, muassasa faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy jarayonlardan biri — qaror qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash jarayoni hisoblanadi. Mazkur jarayonda qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va uning bajarilishini ta'minlash ko'p jihatdan rahbarlarning boshqaruv yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakasi, kasbiy tajribalariga, bajariladigan vazifalarning xususiyatlariga, shuningdek, muassasada yaratilgan sharoitga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalarini boshqarish jarayonida turli xil muammolarni hal etish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda turli masalalar yuzasidan mohiyati va mazmuni jihatidan bir-biridan farq qiluvchi, shuningdek, muassasaning hamda jamoa a'zolarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlar qabul qilish jarayonida muayyan vaziyatlardan kelib chiqib, bahsli masalalar, turli-tuman fikrlar va tortishuvlar vujudga keladi, bunday paytlarda, asosan axborotlarga asoslaniladi. Axborotlarning aniqligi, uni tashkil etuvchi ma'lumot, xabar va yangiliklarning ishonchiligi, ya'ni isbotlanganligi qabul qilinadigan qarorlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, boshqaruv faoliyati — bu boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimdir (2-rasm). Bunda boshqaruvning maqsadi va vazifalari ta'lim tizimini muntazam rivojlantirib borish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash bo'lib hisoblanadi. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda tashkiliy, boshqaruv, pedagogik va boshqa qarorlarni qabul qilinishini nazarda tutgan holda ta'lim muassasasi rahbari boshqaruv faoliyatining modeliga boshqaruv jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning yo'nalishini ifodalovchi komponentlar kiritilgan bo'lib, ular quyidagi:

- bajariladigan vazifalar bilan qo'llaniladigan rahbarlik uslublari va boshqaruv metodlarini muvofiqlashtirish;
- pedagogik tizimning istiqbolini va rivojlantirish yo'nalishidagi vazifalarni oldindan belgilash;
- eng qulay va samarali bo'lgan boshqaruv maqsadlarini belgilash va ularni amalga oshirish vositalarini tanlash;
- belgilangan boshqaruv maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha bajariladigan vazifalarni aniqlash jarayonini o'z ichiga oladi.